



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

*Osiyo texnologiyalari universiteti talabasi:*

*Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika ta’limini rivojlanirishning asosiy muammolari va ularni hal etishning samarali yo’llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, matematika o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich ta’lim, matematika, pedagogik texnologiya, interfaol metod, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, ta’lim sifati.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi – bu bolalarda mantiqiy fikrlash, tafakkurni shakllantirish, o‘qishga qiziqish uyg‘otishning eng muhim davridir. Ayniqsa, matematika ta’limi kichik yoshdagи o‘quvchilarda bilim olishning poydevorini yaratadi. Shu sababli, matematika o‘qitishni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Xususan, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, multimedia vositalari, elektron resurslar va raqamli platformalar boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘quv jarayonida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Bumerang” kabi metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularni mustaqil va mantiqiy fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini asoslab berishga ham o‘rgatadi. Shuningdek, bunday metodlar orqali o‘quvchilar ijodkorlikka, hamkorlikda ishlashga va bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlanadilar.



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, bunda ko‘rgazmalilik juda katta ahamiyat kasb etadi. Kichik yoshdagi bolalar abstrakt fikrlashga asta-sekin o‘tadilar, shuning uchun ularga mavzularni ko‘rgazmali vositalar orqali tushuntirish samaraliroq natija beradi. Masalan, sanash tayoqchalari yordamida qo‘sish va ayirish amallarini bajarish, geometrik shakllar asosida turli figuralarni ajratish yoki solishtirish, rangli kartochkalar orqali sonlarni mustahkamlash o‘quvchilarning mavzuni tezroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bunday vositalar nafaqat bilim berish, balki ularning xotirasini, tasavvurini va e’tiborini ham rivojlantiradi. Shuningdek, o‘yin elementlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda matematika faniga qiziqishni kuchaytiradi. Masalan, “Kim tezroq sanaydi?”, “Shaklni top”, “Rangli sonlar” kabi o‘yinlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. O‘yin orqali o‘quvchi bilim olish jarayonida zerikmaydi, balki raqobat va hamkorlik ruhida o‘rganadi. Bu esa matematik tafakkurni shakllantirish bilan birga, ularda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois, ko‘rgazmalilik va o‘yin texnologiyalari boshlang‘ich sinf matematik ta’limida eng samarali usullar sirasiga kiradi.

Ta’lim jarayonida uchraydigan eng asosiy muammolardan biri bu - an’anaviy yod olish usullariga haddan tashqari tayanishdir. Ko‘p hollarda o‘quvchilar matematik tushunchalarni shunchaki eslab qolish bilan chegaralanadi va ularni real hayotiy vaziyatlarga qo’llashda qiynaladi. Bunday muammoni bartaraf etish uchun darslarda muammoli vaziyatlar yaratish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, turli echimlarni izlashga undash muhimdir. Shu orqali o‘quvchilar faqat nazariyani emas, balki mantiqiy tahlil va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

Keyingi muammo - darslarda faqat darslik bilan cheklanishdir. Bu usul o‘quvchilarda qiziqishning pasayishiga va mavzularni biryoqlama o‘rganishga olib kelishi mumkin. Yechim sifatida qo‘sishma o‘quv qo’llanmalar, elektron dasturlar, interaktiv platformalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Zamonaviy vositalar yordamida mavzularni yanada chuqurroq o‘rganish, o‘quvchilarning mustaqil



ishlash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shuningdek, ta’limda tez-tez uchraydigan muammolardan yana biri bu - o‘quvchilar o‘rtasida bilimlar tafovutining mavjudligi. Bir xil sinfdagi o‘quvchilar turli darajada bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi tabiiy. Bunday vaziyatda differensial yondashuv qo‘llash, ya’ni o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olib mashg‘ulotlarni tashkil etish muhimdir.

Bugungi kunda matematika ta’limida raqamli texnologiyalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, matematik o‘yinlar dasturlari, multimedia taqdimotlari, virtual laboratoriylar orqali mavzularni yanada qiziqarli tarzda tushuntirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilar mustaqil ishlashga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va ijodiy fikrlashga undaladi. Shu sababli, matematika darslarida texnologiyalardan oqilona foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta’lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda matematika ta’limini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va matematik tafakkurni rivojlantirish mumkin. Kelgusida ta’lim samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish talab etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari.
2. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Xoliqulova, N. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodlari. – Toshkent, 2022.
4. Zunnunov, A. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.